



SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 22-iyul

174-9-124-Q/25

Guliston tuman hokimligi

Guliston tumani hokimining 2025-yil 19-fevraldagi 37-9-124-Q/25-sonli qarorini bekor qilish hamda umumta'lim muassasalariga birlashtirilgan hududlar (mikrohudud)larni belgilash to'g'risida.

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 21¹-moddalari, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish jarayonida, umumta'lim muassasalariga birlashtirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida, Guliston tumani Adliya bo'limining 2025-yil 9-apreldagi 1-20/1-7/102-sonli taqdimnomasini inobatga olib

QAROR QILAMAN:

1. Guliston tumani Adliya bo'limining 2025-yil 9-apreldagi 1-20/1-7/102-sonli taqdimnomasi inobatga olinsin.

2. Guliston tumani hokimining 2025-yil 19-fevraldagi 37-9-124-Q/25-sonli qarori bekor qilinsin.

3. Tuman hududidagi Sirdaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga qarashli 70-sonli maktab-internati tugatilib, 33-sonli umumta'lim maktabi tashkil etilishi munosabati bilan maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish bo'yicha umumta'lim muassasalariga birlashtirilgan hududlar (mikrohudud)larning yangi tavsifi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga qamrab olish umumta'lim muassasalari pedagog xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir (uyma-uy) ro'yxatga olish orqali amalga oshirilsin.

5. Tuman hokimi o'rinbosari X.Chelibayev, tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (R.Berkinov), Umumta'lim maktablari rahbarlariga:

maktab yoshidagi bolalarni umumiy o'rta ta'limga, umumta'lim muassasasi bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga to'liq qamrab olish, o'quvchilarning

darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rish vazifasi topshirilsin.

6. Belgilansinki, tumandagi umumta'lim muassasalari rahbarlari o'zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o'z vaqtida umumta'lim muassasasiga o'qishga jalb qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

7. O'zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo'limi(Sh.Xushmuratov)ga mahalla fuqarolari yig'ini tomonidan maktab yoshidagi bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etish jarayonida tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamda umumta'lim muassasalariga amaliy yordam berishni tashkil etish tavsiya etilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Erkinov), "Guliston hayoti" gazetasi tahririyati (B.Norjigitova)ga Mazkur qaror mahalliy matbuotda chop etilsin va uning ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari X.Chelibayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b.



O.Jurayev

Guliston tumani hokimining
2025-yil 22-iyuldagi
174-9-124-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Guliston tumanidagi umumta'lim maktablariga biriktirilgan mikrohududlar.

T/r	To'liq nomi	Qisqa nomi	Manzili	Mikrohudud chegarasi
1	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	1	Do'stlik mahallasi, Nihol ko'chasi 4-uy	Turkiston ko'chasining chap tomonida joylashgan A.Yassaviy, Do'stlik mahallalariga kiruvchi barcha ko'chalar
2	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	2	Oltin vodiy mahallasi, Komillik ko'chasi 44-uy	Oltin vodiy mahallasi hududidagi barcha ko'chalar, Furqat mahallasidagi Sardor, Zumrad, Kamalak, Forish ko'chalari
3	3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	3	Yuksalish SIU, Soyibobod mahallasi Ziyoli ko'chasi 16-uy	Soyibobod QFYda joylashgan barcha ko'chalar
4	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	4	Chortoq QFY Lochin, ko'chasi 26/1-uy	Chortoq mahallasi, Xalqabod aholi punkti to'liq
5	5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	5	Beshbuloq mahallasi, Mingchinor ko'chasi 19-uy	Beshbuloq mahallasi Archazor, G'azna, Sohibkor ko'chalari hamda Mingchinor ko'chasining 5-maktab yonidan mahalla chegarasigacha
6	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	6	Boyovut SIU, Terakzor mahallasi Diyor ko'chasi 60-uy	Terakzor mahallasi, Oqtepa, Boyovut, Marhabo-1, Marhabo-2, Hamkor-1, Hamkor-2, Hamkor-3, Hamkor-4, Rayhon-1, Rayhon-2, Ilg'or-1, Ilg'or-2, Fayzli, So'g'diyona, Diyor, Istiqbol ko'chasi 80-xonadongacha, Nurchiroy ko'chasi 40-xonadongacha,
7	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	7	Yulduz mahallasi, Jasorat ko'chasi 7-uy	Yulduz MFY (to'liq)
8	8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	8	Birlashgan mahallasi, Ulug'bek ko'chasi 11-uy	Birlashgan mahallasi to'liq
9	9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	9	Zarbdor mahallasi, Ko'rpasoy ko'chasi 10A -uy	Zarbdor mahallasi, Sayqal, Chinobod, Baxt, G'alaba, Birdamlik, Murabiy, Nurafshon, Al-Buxoriy, Alpomish, Tashnobod, Nurli yo'l, Yangiobod va Ko'k dala ko'chalari
10	10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	10	Baxmal mahallasi, Ulkansoy ko'chasi 10-uy	Baxmal MFY (to'liq)

11	11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	11	Inoqlik mahallasi, Farobiy ko'chasi 41-uy	Inoqlik mahallasi Uyuvli qishlog'i (to'liq)
12	12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	12	Beshbuloq mahallasi, Istiqlol ko'chasi, 51-uy	Beshbuliq mahallasi, O'zbekiston bo'limi (to'liq)
13	13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	13	H.Olimjon mahallasi, Gulobod ko'chasi 17 uy	H.Olimjon mahallasi (to'liq)
14	14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	14	Dehqonobod sh, Ibrat mahallasi, Ziyokor ko'chasi 67-uy	Ibrat MFY to'liq, Turkiston ko'chasining o'ng tomonidagi ko'chalari, G'allaorol va Olimpiada ko'chalari
15	15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	15	Sohilobod mahallasi, Vatanparvar ko'chasi 2-uy	Sohilobod mahallasi (to'liq)
16	16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	16	A.Navoiy mahallasi, Sharq yulduzi ko'chasi 12-uy	A.Navoiy mahallasi (to'liq)
17	17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	17	Tajribakor mahallasi, Afrosiyob ko'chasi 39-uy	Tajribakor mahallasi (to'liq)
18	18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	18	Mustaqillik mahallasi, Yangikent ko'chasi 3-uy	Mustaqillik MFY (to'liq)
19	19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	19	Mustaqillik mahallasi, Me'mor ko'chasi 23-uy	Mustaqillik mahallasi, Yangi hayot aholi punkti
20	20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	20	Inoqlik mahallasi, Ma'shal ko'chasi 1-uy	Chortoq aholi punkti (to'liq)
21	21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	21	Beshbuloq QFY, Baxmal ko'chasi 16-uy	Beshbuliq QFY, Chorvador aholi punkti(to'liq)
22	22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	22	Chortoq mahallasi, Yulduz ko'chasi	Chortoq mahallasi Islomobod aholi punkti (to'liq)
23	23-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	23	Baxmal mahallasi, Oyqor ko'chasi 10-uy	Baxmal MFY (to'liq)
24	24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	24	Boyovut mahallasi, Ijodkor ko'chasi 2-uy	Boyovut MFY (to'liq)
25	25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	25	Ishonch mahallasi, To'linoy ko'chasi 26-uy	Ishonch MFY (to'liq)
26	26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	26	Sharq haqiqati mahallasi, Sharq yulduzi ko'chasi 1-uy	Sharq haqiqati MFY (to'liq)
27	27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	27	Ibrat mahallasi, Ziyokor ko'chasi 64-uy	5, 6-sinfga o'quvchilar qabul qilish, tanlov asosida

28	28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	28	Zarbdor mahallasi, Sadaf ko'chasi 27-uy	Zarbdor maxallasi, Kamolot, Taraqqiyot, Maftunkor va Yangi turmush ko'chalari
29	29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	29	Beshbuloq mahallasi, Mevazor ko'chasi 1-uy	Mevazor, O'rikzor, Koinot, Ahillk, Do'stlik, ko'chalari tuman chegarasigacha.
30	30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	30	Furqat mahallasi, Komillik ko'chasi 102-uy	Furqat MFY, Komillik, Ishonch, Yong'oqzor, Shifokorlar, Nurli hayot, Chavandoz, Yoshlik, Sohilbo'yi, Baxt Tashabbus, ko'chalari
31	31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	31	Mevazor mahallasi, Bog'bon ko'chasi	Mevazor MFY (to'liq)
32	32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	32	Terakzor mahallasi, Mirishkor-2 ko'cha	Terakzor MFYdagi, Mirishkor-1, Mirishkor-2, Nurchiroy- 41-xonadondan, ko'chasi, Istiqbol-81xonadondan
33	33-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	33	Do'stlik mahallasi, Ziyokor ko'chasi 75-uy	Ahillik mahallasidagi barcha ko'chalar